

PAPER

BO'LAJAK PEDAGOGLARGA TIBBIY BILIM ASOSLARI FANINI O'QITISHDAGI INTERFAOL METODLAR

Yuldoshova Shaxrizoda Shokir qizi^{1,*}, Rasulova Sarvinoz Akmal qizi¹, Latofat Jamolova Asqarovna²

¹Iqtisodiyot va pedagogika universiteti 2-kurs talabasi

²Iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

*latofatjamolova041@gmail.com

Abstract

Tibbiy bilim asoslari fanini o'qitishda amaliy ish uslublaridan foydalanildi. Mavzuni o'qitish jarayonida interfaol uslublar "To'rt taraf" metodini qo'llash va tadbqiq etish, tibbiy bilimlarni berish orqali talabalarning bilim va ko'nikmalarni oshirish samarasi va sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, ularning mustaqil fikrlashi, dallillarga asoslangan tibbiyot asosida ma'lumotlarni tahlil qilishi, o'zini tanqidiy baholash qobiliyatlarini rivojlantirish usullari taklif etildi. Mavzuning dolzarbligi: Zamonaviy bilim va ko'nikmaga ega, raqobatbardosh kadr tayyorlash, ularda kasbiy mahoratni rivojlantirish bilan birgalikda tibbiy, psixologik va pedagogik malakani shakllantirish. O'qitadigan o'quvchi yoshlarga tibbiy bilim ko'nikmalari asosida yordam bera olishi va dars tashkil etish.

Key words: tibbiy pedagogika, aqliy hujum, pedagogika, kasbiy mahorat, tibbiy bilim, to'rt taraf, mustaqil fikrlash.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Bu esa o'z navbatida pedagoglik kasbining yanada murakkablashuvi, mas'uliyati va vazifalarining ortishiga olib keladi. Chunki ommaviy ta'limning

bugungi sharoitida yangi avlod bilan ishlash, ularni rivojlantirish, jahon talablariga mos qilib kasbga tayyorlash zamonaviy o'qituvchidan yuksak texnologik bilim, salohiyat va mehnatni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yana bir muammoni hal etish o'ta muhim hisoblanadi: bu pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsusbilimlaridir. Bu

Compiled on: January 17, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Education for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](#).

borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur", – degan fikrlari katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonning kelajagi va ravnaqi ko'p tomonlama undagi kadrlarning bilimdonligi, kasb tayyorgarligi va ma'naviy yetukligiga bog'liq. Respublikamizda mutaxassisning kasbiy madaniyatini rivojlantirish, sog'lom turmush tarzi va uning falsafiy, pedagogik masalalari bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan.

Tibbiy bilim asoslari fanini o'qitishdan maqsad – bo'lajak pedagoglar dars jarayonida tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlarda o'quvchilarga birinchi tibbiy yordamni tashkil etish, tibbiy yordamning anatomik–fiziologik asoslari, dorishunoslik, bemor bo'lgan bolalarni parvarish qilish, kasallik va zaharlanishda tibbiy yordam, yuqumli kasalliklar, bolalar infeksiyasi, shikastlanganda birinchi tibbiy yordam, onalik va bolalikni muhofaza qilish, odam tanasining tuzilishi, rivojlanishi, a'zolari va tizimlarining funksiyalarini bir-biriga bog'lab o'rganishdir. Jismoniy baquvvat, ma'naviy, axloqiy, yetuk, intellektual rivojlangan, yuksak bilimli, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirish, shuningdek, oilada, ish joyida va boshqa sharoitlarda shikastlanish, jarohatlanish, zaharlanish, to'satdan og'ir kasallanish, favqulodda vaziyatlar sharoitida shikastlangan, jarohatlangan o'quvchi yoshlarga hamshira kelgunga qadar, birinchi tibbiy yordamni tashkil etish, o'quvchilarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish malaka va ko'nikmalariga ega bo'lgan talabalarni tayyorlashdan iborat.

Shuningdek, ushbu tibbiy bilimlar bo'lg'usi o'qituvchi va murabbiylarning kundalik turmush jarayonida aholi o'rtasida savobli ishlarni amalga oshirishlarida ham asqotadi. Xalq tili bilan aytganda, issiq jonning isitmasi ham bo'ladi, deganlaridek, har bir oilada, qo'ni-qo'shnilarida, ayniqsa yosh bolalar va keksalarda birinchi tibbiy yordamga zaruriyat tug'ilib turadi. Bu esa muhim ijtimoiy muammo hisoblangan xalq sog'lig'ini muhofaza qilish borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan muhim tadbirlardan biridir. Bu nafaqat shifokor, hamshiralarni balki bo'lajak pedagoglar uchun ham asosiy vazifadir. Ular o'quvchilar bilan ishlash

jarayonida, dars mashg'ulotlarida turli xil endogen va ekzogen ta'sirlar natijasida o'quvchi yoshlarni sog'ligiga javobgardir.

Har qaysi fanni o'qitishda har bir fan o'qituvchisining ish quroli hamda bilim, ko'nikma, pedagogik mahorati bo'lishi talabalarning bilim olishida yuqori ko'rsatkich beradi. Har bir talaba tibbiy bilim asoslarini o'rgana bilishida, o'qituvchi turli xil metodlardan foydalanib dars tashkil etsa maqsadga muvofiqdir. Endilikda metodlar juda ko'p va ularni ishlatish kundan–kunga zamonaviylashib bormoqda.

Interfaol metodlar, o'z mohiyatiga ko'ra, ta'lim yoki tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda ma'lum darajada samaradorlikka erishishni ta'minlasa-da, biroq ularning har biri ta'lim yoki tarbiya jarayonida samaradorlikni ta'minlashda turli imkoniyatlarga ega. Shu sababli o'qituvchi (pedagog)lar interfaol metodlarni tanlashda o'rganilayotgan mavzu, muammo yoki hal qilinishi lozim bo'lgan masalaga e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, interfaol metodlarning samaradorligi ularni qo'llashda ta'lim oluvchi (o'quvchi, talaba, tinglovchi va kursant)larning yoshi, psixologik xususiyatlari, dunyoqarashi, hayotiy tajribalari inobatga olinsa, yanada oshadi. Bu o'qituvchi (pedagog)dan kasbiy mahorat, malaka, bilimdonlik, sezgirlik va intuitsiyaga ega bo'lishni taqozo etadi. Bo'lajak pedagoglarga Tibbiy bilim asoslari fanini o'qitishda interfaol ta'lim metodlari talabaning fikrlash erkinligini, fikr bildirish qobiliyati shakllantirishda, muammolarga aniq, to'g'ri va qisqa yechim topishda, fanni chuqur o'zlashtirishda yordam beradi.

Metod – ta'lim maqsadi va vazifalarini xalq etish yo'lidir. Metodlarni qo'llashda yordamchi vositalar buning aksi o'laroq tasvir va matnlarni yozib olish va saqlash imkonini beradi. Bu esa bo'lajak pedagoglarda tasavvurni shakllantirish muhim omil hisoblanadi. Berilgan nazariy bilimni ko'z oldiga keltirib o'rganish ma'lumotni xotirada qolishiga muhim o'rin egallaydi. Ular rangli suratlar, videonamoyish, videorolik kabilardir. Ish sohasiga tegishli real narsalar, ya'ni mahsulotlar, asboblardan boshqalar dars paytida didaktik funksiyaga ega bo'lsa, o'quv vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin. Ta'lim vositalaridan foydalanishda ularni muayyan maqsad, mo'ljallangan guruh, maxsus

soha va metodlarga mos holda tanlash muhim o'rin tutadi. Ushbu vositalar yordamida mashg'ulotlarni zamonaviy talablarga javob beradigan tarzda olib borish hamda ta'lim oluvchilarning diqqatini jalb etishda keng foydalanish mumkin. Texnik vositalar ma'lumotlarni vizuallashtirishga yordam berib, kerakli tasvir va matnlarni yozib olish va saqlash imkonini beradi. Ta'lim beruvchilar doska tasvirlari, va slaydlar, videorolik, kabi vizual vositalarni o'zlari ishlab chiqadilar. Tibbiy bilim asoslari fani tibbiyotga oidligi yuqori foizni tashkil etadi, lekin talabalarining barchasi ham tibbiyot mutaxxasi emas. Ular orasida a'zolar tuzilishi, fiziologiyasi hamda tibbiyotga oid termin ma'lumotlarni bilmaydi. Yangi bilim ko'nikma berishda bir nechta metodni uyg'unlashtirgan holda dars tashkil etish kerak.

Buning uchun "To'rt taraf" metodiga ishlov bergan holda bilimlarni mustahkamlaymiz. "So'z-yagona ma'lumot manbai. yuz bor eshitgandan ko'ra bir bor ko'rmoq afzaldir, yuz bor ko'rishdan bir bor bajarish afzaldir" degan naqlga amal qilamiz.(1-ilova). To'rt taraf metodi bir qancha metodlarni bir biriga bog'lagan holda shakllantirilgan. Tibbiy bilim asoslari fanidan birinchi mavzu "Tibbiy bilim asoslari faniga kirish" mavzusini o'qitishda "To'rt taraf" metodi yaxshi samara beradi.

Mavzuga umumiy tushuncha beradigan savollar jamlanadi. Bu esa noan'aviy dars shakli bo'lib, 5ta savol umumiy darsni mohiyatini belgilab berishi kerak. Har bir savol javob qisqa muddatni tashkil etishi kerak. Bundan tashqari noan'aviy darslarda biror bir savolga yechim topish uchun ham bu metodlar jamlammasidan foydalansa bo'ladi.

1-bosqich; Bu bosqichda "Aqliy hujum" metodidan foydalaniladi. –Sog'liq nima? deb o'rta savol qo'yiladi. Guruhdagi barcha talabalari o'z bilimi asosida qisqa – qisqa javob beradilar. Bunda tanqid, tahlil, fikrlash, ishonish, inkor etish tuyg'ulari paydo bo'la boshlaydi. Berilgan javob inkor etilmaydi, xatosi to'g'irlanmaydi, baho berilmaydi.(3-5 minut)


2-bosqich; Bu bosqichda "Tasvir metodi"dan foydalaniladi. Jonli taassurotni shakllantirish uchun turli usul rasm, slayd yoki qisqa syujetli videorolik qo'llaniladi. 3-usul videorolikda sog'likka oid, yoki organizmning ayrim a'zolarini funksional harakatini ifodalovchi yangi bilimlarga boy

videolavha namoyish etiladi. Va shu faoliyat buzilishi natijasida kelib chiqadigan oqibatlar uqtiriladi. O'qituvchi qisqa nazariy bilim bilan yoritadi. Endi talabaga vazifa shuki, sog'lik degan savolga videorolikdan olgan taassurotni bilan, fikrlab javob berish buyuriladi. Afzallik tomoni shundaki, jonli taassurot bo'lajak pedagogning fikrlashga, yangi fikr o'ylashga undaydi. Biz ma'lumotlarni 80-85% ini ko'rish orqali idrok etamiz, (videorolikka – 2-3minut, tushuntirishga 3 minut)

3-bosqich; "Amaliy ish metodi" dan foydalaniladi. Bunda jihozlarsiz yo maxsus kerakli asboblardan orqali amaliyot bajariladi. Masalan: Pulsni o'lchash texnikasi o'rgatiladi. Va talabalar o'rgatish usulidan foydalanib o'zlarida sanoq oladilar. Bu esa qon tomirning urishi, yurakning fiziologik harakatini his qilishga yordam beradi. Bo'lajak pedagog ichki hissiyotlari bilan o'zida kechadigan jarayonlarni his etsa, sog'likning bebaho boylik ekanligiga yanayam ishonch hosil qiladi. Puls soni normadan farq qilganini bilsa, o'ziga savol qo'yadi –sog'ligimda o'zgarish bormi deb. Har bir inson o'z sog'ligiga o'zi e'tibor bermog'i va kasalliklarni oldini olish va uzoq umr ko'rish uchun sog'ligini nazorat qilmog'i kerak. Kasallikni davolashdan ko'ra oldini olmoq eng to'g'ri yo'ldir.(Texnikani o'rgatishga – 2 minut, bajarishga 2 minut)

4-bosqich; "Xulosalash" metodidan foydalaniladi. Bunda berilgan savol yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin. – Sog'liq nima? deb so'nggi marta savol beriladi. Talaba uch bosqichdan o'tganidan so'ng sog'liq nima degan savolga eshitib, ko'rib, amaliyotda sinab, xulosa qilgan holda javob beradi. Bu jarayonda talabalar bir birlarini fikrlarini eshitib yanayam dunyoqarash kengayadi. Va eng to'g'ri javob bergan talaba rag'batlantiriladi. Tibbiy bilim asoslari fani tabiiy fanlarni bir bo'lagidir. Aynan organizmida kechadigan fiziologik jarayonlar to'xtovsiz amalga oshadi. Unda yo sekinlashish yo tezlashish yoki funktsiyaning buzilish holati bo'ladi. (5 minut).

Shunday qilib talabalarga ikkinchi savol beriladi? Bunda –Organizm tuzilishida nechta organlar sistemasi ishlaydi deb so'raladi? 4-bosqichga kelganda talaba bu savolga 1-bosqichda bergan javobiga ko'ra to'laroq javob beradi. Nima uchun aynan his qilish kerak? Nima uchun talaba amaliy ish bajarishi kerak? Aynan tibbiy bilim asoslari fani



tabiiylikni talab qiladi. Qaysidir organizmni borligi uni ishlab turishini his qilmasa barcha aytgan so'zlarimiz, bilimlar shunchaki nazariy bilim bo'lib qoladi.

Yurtboshimizning ayrim siyosiy hujjatlarida belgilab quyilgan aholini yoki talaba yoshlarni tibbiy savodhonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Sog'lom yurt- bu so'g'lom insonlar jamoasidir. Sog'lom ona-Sog'lom bola deganidir. Bu esa o'zining hamda oila-a'zolarining, yaqin birodarlarining sog'ligini asrash uchun qanday bilimlarni bilishi kerakligi, ekologik, texnik sabablar orqali jamoat joyda birinchi tez yordamni bera olishdagi bilimlarni bilishi kerakligi asosiy sababdir. Har bir talaba fanni o'zlashtirish jarayonida berilgan ma'lumotlarni har xil qabul qiladi. Bu rivojlanish psixologiyasi bilan bog'liq. Shunday ekan hozirgi zamon ta'lim texnologiyalari asosida bitta savolni javobini talaba anglashi uchun bir nechta bosqich, usulda tushuntirish o'rinli deb bilaman. Bu metoddan albatta mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
2. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son qarori.
3. SH.M.Mirziyoyev "Tanqidid y tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Toshkent 2017, 45-bet.
4. S. X. Sulliyeva, F. A. Tojiyeva, G. I. G'aniyeva. Uzluksiz ta'lim tizimida o'qitishning zamonaviy tashkiliy shakllari (monografiya) Termiz -2023
5. Avliyakov N.X, Musayeva N.N Pedagogika texnologiya: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik/ Cho'lpon NMIU 2012.208 b. (40-bet.)
6. Iskandarov A.B., IV.Slavinskaya "Gigienicheskie trebovaniya dlya trikotajnx predpriyatij" San PiN R Uz № 0262-09 T., 2009, - 19 b
7. Kodirova M.M, Muxammadova G.Q. Pedagogik texnologiyalar tizimining tibbiyot fanlarini o'qitishdagi o'rni (Kommunal va Mehnat gigiyenasi dars mashg'ulotlarini organayzerlar asosida). "PEDAGOGS" International research journal. Volume-53, Issue-1, March-2024